

"Kimyo sanoati yosh mutaxassislari" ilmiy-intellektual forumi o'z ishini boshladi

// 27.05.2025

<https://uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/kimyo-sanoati-yosh-mutaxassislari-ilmiy-intellektual-forumi->



Bugun "Kimyo sanoati yosh mutaxassislari" ilmiy-intellektual forumi o'z ishini boshladi

Mazkur forumda "Maxam-Chirchiq" AJ, "Navoiyazot" AJ, "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ, "Qo'ng'irotda soda zavodi" MCHJ QK, "Qizilqum fosforit kompleksi" MCHJ, "Ammofos-Maxam" AJ, "Farg'onaaazot" AJ, "Birinchi rezinotexnika zavodi" MCHJ XKlarda faoliyat yuritayotgan yosh kimyogar mutaxassislari, shuningdek, D.I.Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo texnologiyalari universitetining Toshkent shahridagi filiali, Toshkent kimyo-texnologiya instituti hamda Yangi O'zbekiston universiteti talabalari - jami 200 nafar yoshlar ishtirok etishmoqda.



Dastlab ishtirokchilar D.I.Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo texnologiyalari universiteti Toshkent shahridagi filialiga tashrif buyurishdi. Ilm dargohida sohaning bo'lajak mutaxassislari uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishildi.



Shuningdek, ishtirokchilar Chirchiq kimyo-industrial texnoparkiga ham ekskursiya tashkil etildi. Texnoparkda ishlab chiqarish jarayonlari bilan tanishishdi. Yosh mutaxassislar o'zlarini qiziqtirgan savollariga batafsil javoblar olishdi.



Forumning asosiy tadbirlari "Kimyogar" sog'lomlashtirish oromgohida bo'lib o'tadi.



